

Хўжаобод туман
Ахборот кутубхона маркази
Ахборот - библиография хизмати

“BIR BAXSHINING ORTIDA...”

To'ra Sulaymon tavalludining 90 yilligi munosabati bilan
(Esdalik)



Хо'жаобод 2024

She'ri xalq qo'shig'iga aylangan shoirning umri uzun bo'ladi. Uning umri o'zbekman degan millat dunyoda yashagani qadar yetadi. Aslida mana shu xalq qo'shig'iga aylangan she'rlar tufayli o'zbekning umri ham dunyo turguncha va qora chodirda eng so'nggi yulduz so'nishi qadar davom etadi.

To'ra Sulayman O'zbekiston xalq shoiri, o'z ijodi bilan o'zbek she'riyatiga qadim xalqona ohanglarni qaytarishga uringan iste'dodli adib To'ra Sulaymon 1934-yilning 15-fevralida Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi Aldashmon qishlog'ida tavallud topdi. Agar shoir tug'ilgan yilga e'tibor bersangiz, uning bolalik yillari sobiq sho'rolar davlatida "qama-qama"lar avjga chiqqan, barcha sohalarda "xalq dushmanlari va ularning dumlari"ni qatli om qilish jarayoni kechayotgan pallaga to'g'ri kelganini anglaysiz. Bu falokat To'ra Sulaymon oilasini ham chetlab o'tmagan. Uning otasini ham "xususiy mulk egasi", "mushtumzo'r" sifatida quloq (ruscha "kulak" – mushtumzo'r so'zining o'zbekchaga moslashtirilgan shakli) qiladilar. Oilaning butun tirikchilik tashvishi bechora onaning zimmasiga tushadi. 1939-yilda uning otasi qamoqdan qaytadi va oilasini Sirdaryoga ko'chirib ketadi. To'ra Sulaymon shu yerdagi qishloq maktabida o'qiydi. O'qishni bitirib, bir necha yillar davomida qishloq maktablarda turli fanlardan dars beradi. Urushdan keyingi yillar maktablarda oliy ma'lumotli mutaxassislar yetishmas, To'ra Sulaymon singari maktablarning uquvli bitiruvchilari ta'lim-tarbiya ishiga jalb qilinardi. Zamon o'zgargan sari oliy ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoj, qolaversa, o'zi qiziqqan badiiy ijodga umrini bag'ishlash istagi uni Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek lologiya fakulteti nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)ning sirtqi bo'limida o'qishga undaydi. Bo'lg'usi shoir ham o'qiydi, ham


ishlaydi (1958 –1964-yillar). O‘qishni bitirib, Guliston tumanidagi maktablarda ona tili va adabiyotidan bolalarga saboq beradi. Keyin tuman va viloyat gazetalarida mehnat qiladi, 1972– 1981-yillar davomida esa Respublika Yozuvchilar uyushmasining Sirdaryo viloyat bo‘limi mas’ul kotibi, adabiy maslahatchisi lavozimlarida ishlaydi. 1977-1986-yildan umrining oxirigacha esa adabiy maslahatchi bo‘lib xizmat qilib keldi.



Ijodi 50-yillardan boshlangan. Ilk she’rlar to‘plami — „Istar ko‘ngil“ (1962). „Qorasoch“ (1965) dostoni taniqli ijodkorlar, tanqidchilar tomonidan yaxshi kutib olingan. „Men qayga borar bo‘lsam“ (1965), „Jahrngashta“ (1970), „Hamqishloqlarim“ (1973), „Intizor“ (1973), „Sirdaryo qo‘shiqlari“ (1974), „Iltijo“ (1976), „Alhazar“ (1976), „To‘yboshi“ (1977), „Sizni eslayman“ (1980), „Qorako‘zginam“ (1981), „Gulshan“ (1988), „Sarvinoz“ (1990), „Xarsang“ (1994), „Jahonnoma“ (1996), „Gul bir yon, chaman bir yon“ (1996), „Yovqochdi“ (1998), „Sayhon“ (2003), „Mamlakatning tayanch nuqtasi“ (2004) kitoblari nashr etilgan. Ko‘plab she’rlari qo‘shiq qilingan. To‘ra

Sulaymon xilmaxil janrlarda qalam tebratadi. Shoirning sof lirik she'rlari, qasida va faxriyalari, manzumalaridan tashqari, xalq yo'lida bitilgan, o'z davrining dolzarb masalalariga bag'ishlangan, voqelikni qad. baxshilar nazari bn ko'rib, o'xshatma yoki nazira shaklvda yozilgan asarlari ham o'ziga xos xalqchilligi bn ajralib turadi. Ayniqsa, „Ergash Jumanbulbul el kezadi“ turkumidagi baxshiyona she'r va dostonlari o'zbekning milliy g'ururini tiklashga munosib hissa qo'shgan asarlar sirasiga kiradi.

To'ra Sulaymon asarlari faqat ifoda tarzi yoki ohangi bilangina emas, tasvirdagi samimiyat, o'xshatishlarning o'ziga xosligi nuqtai nazaridan ham xalqchil. Uning ijtimoiy hayotning dolzarb muammolariga bag'ishlangan publitsistik maqolalari ham bor („Mamlakatning tayanch nuqtasi“, maqolalar to'plami, 2004). 1999-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan To'ra Sulaymonga “O'zbekiston xalq shoiri” degan yuksak unvon berildi Shoir 2005-yil vafot etgan va Gulistonda dafn qilingan. 2022-yil Sirdaryoda To'ra Sulaymon uy-muzeyi tashkil etilgan.



Zamondoshlar xotirasida

To'ra Sulaymon XX asr o'zbek she'riyatida o'ziga xos uslubi, xalqona ohanglari bilan alohida o'rin tutadi. Shoir she'rlarida poyonsiz dashtlarga xos kenglik, dehqoncha soddalik, baxshiyona ohang bor. Bu tizmalarni o'qiganda she'riy san'atlaru adabiy qonun-qoidalarni unutib, so'zlardagi go'zallikdan hayratlanasiz, tuyg'ulardagi haroratdan ko'nglingizga iliqlik yuguradi. Bir so'z bilan aytganda, To'ra Sulaymon qayta-qayta o'qilsa arziydigan chinakam shoirlarimizdan.

Orif Tolib

Ibrohim Haqqul filologiya fanlari doktori

Shunday degan edi Bu foniyl dunyoni tark etib ketgan yozuvchi va shoirlar juda ko'p. Chunki To'ra Sulaymon maqtasa – maqtagudek, faxrlansa – faxr etgudek shoir. Uning shaxsiyati haqiqatda siyrak uchraydigan bir shaxsiyat.

Yoki “To'ra Sulaymon bir yon, Go'ro'g'li Sulton bir yon” deya o'zbekning afsonaviy bir qahramoni bilan “ring”ga chiqarmidi?” dedim.

**Qor tamomi qo'nmishdir boshga,
Qaramasdan ko'ngilga, yoshga.
Buyuk tog'lar misoli boshim**

Yaqin bo'lar endi quyoshga...

**To'ra Sulaymon degan
Bir baxshisi bor ekan,**

**Bir baxshining ortida –
Ming yaxshisi bor ekan, —**

degan so'zlarining rostligiga hech shak keltirmaysiz. Qonida baxshilik, oqinlik hissiyoti jo'shganda, o'zini u Ergash

Jumanbulbul o'rnida tasavvur etib, yurt kezib jafokash elining g'am-anduh, ijtimoiy hasrat va nadomatlarini mardona ohanglarda tasvirlab ketgan. To'ra Sulaymon siyratidan she'rga ko'chgan rindlik, darveshlik holatlarini ham men e'tiborga molik, deb bilaman.

Bizningcha, To'ra Sulaymon kelajagi kafolatlangan qalam sohibi, tama, xushomad, maddohlik ofatiga yo'liqib u hech payt shoirligini sotmagan va turlanib-tuslanishga ehtiyoj ham sezmagani. Agar hozir To'ra Sulaymon hayot bo'lganida, millat va jonajon yurt qismatidagi yangilanish hamda hayotiy evrilishlardan qalbi ilhomga to'lib, tinim bilmay ijod qilardi.

O'zbekiston xalq shoiri

Xurshid Davron

To'ra Sulaymonni bilaman deb yurgan ekanman. Bilmas ekanman. Oqin shoirning «Sensiz yolg'iz, g'arib bo'ldim...» saylanma kitobini varaqlar

ekanman, bilmasligimni chuqur angladim. Hamma qatori «Go'ro'g'li sulton bir yon, To'ra Sulaymon bir yon» ni aytib yuravergan ekanman.

To'ra Sulaymon bilan yuzma-yuz ilk kitoblarim chiqqan 80-yillarda tanishganman. Kunlardan-bir kun shoir men ishlaydigan «Yosh gvardiya» nashriyotiga kelganida, ataylab meni izlab topgan, «Ha, Samarqandday shahri azimdan ham shoir chiqar ekan-ku!» deya meni bag'riga bosgan edi. O'sha-o'sha To'ra aka Toshkentga kelganida meni surishtiradigan bo'ldi, goh «Mavlono Samarqandiy» deb, «Sohibqiron nabirasi» kitobim nashr etilgandan keyin «Bobomning nabirasi» deb alqaydigan bo'ldi. Men bo'lsam o'zim bilan-o'zim ovora, yonimdagi ulkan

chinorni, bepoyon dashtni, yuksak Olqorni bilib-bilmay yuravergan ekanman.

To'ra aka olamdan o'tgach, uning menga bo'lgan mehri farzandlariga o'tdi. Og'a shoirdan qolgan ana shu ulkan mehr oldida qarzdorman. «Sensiz yolg'iz, g'arib bo'ldim...» kitobining har misrasini, ayniqsa, «Ergash Jumanbulbul o'g'li el kezadi» turkumidagi har bir naqlni o'qiganimda bu qarzning ortib borayotganini sezdim. To'ra akadan oldin menga uning mana bu she'ri yetib kelgan, yuragimga o'chmas bo'lib quyilgan edi:

Shamol shamolni tebratar.

Shamol bulutni tebratar.

Bulut yomg'irni tebratar.

Yomg'ir maysani tebratar.

Maysa biyani tebratar.

Biya qimizni tebratar.

Qimiz yigitni tebratar.

Yigit suluvni tebratar.

Suluv beshikni tebratar.

Beshik bolani tebratar.

Bola dunyoni tebratar.

Bu she'r erta ko'klam shamoli tebratgan olis va kimsasiz dashtning ko'kshin chechaklari shovullashiday sehrli va qadimiy edi. Bu she'r Koshg'ariy bobo zamonlaridan, bepoyon va yuksak Tagritog' tomonlaridan kelganday edi. Bu satrlarni ilk eshitganimda ularni XX asrning shoiri yozgani mutlaqo xayolimga ham kelmagan, bu ko'hna qo'shiqni soqolini shamol qo'mitgan qari, ammo ko'zlari tiyrak baxshi to'qigan bo'lsa kerak deb o'ylagan edim. She'ri xalq qo'shig'iga aylangan shoirning umri uzun bo'ladi. Uning umri o'zbekman degan millat dunyoda yashagani qadar yetadi. Aslida mana shu xalq qo'shig'iga aylangan she'rlar tufayli o'zbekning umri ham dunyo turguncha va qora chodirda eng so'nggi yulduz so'nishi

qadar davom etadi. Taniqli adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshning kitob uchun maxsus yozilgan «Ikkinchi umr manzaralari» maqolasi To'ra Sulaymondek betakror shoirning ijod olamini teran va samimiy ochib berganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Olim mazkur maqolada to'g'ri qayd etganidek, «To'ra Sulaymon — bugungi odam hayoti va olam hodisayu holatlarini kechanning nazari bilan ko'rib, shuurga tez yetib borib, unda mustahkam o'rnashadigan azaliy usulda ifodalay olgani bilan ertangi kungning ijodkor. Zero, shoir ijodining yitmas qadimiy qadriyatlardan suvlangan tomirlari o'ta chuqur ketgan. To'ra Sulaymon asarlarida kechanning bag'rida dunyoga kelgan bugun ertangi kunni nazorat qiladi. Shu sabab, ular da millatning uzilmas umr zanjiri, yitmas ezgu qadriyatlari aks etadi».

Foydalangan adabiyotlari.

1. Nurmonov A, O'zbek tilining nazariy gramatikasi. Morfologiya/ A, Nurmonov, Sh. Shahobiddinova Sh. Iskandarova, D. Nabiyeva. - Toshkent: O'qituvchi. - 2001.
2. Rasulov, R. Leksikologiyani o'rganish/ R. Rasulov, M. Nazirjv. - Toshkent: O'qituvchi. - 1992. - 231 b.
3. Rahmatillayev, Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Fan. - 2006. - 48 b.
4. O'zbek tili leksikologiyasi. - Toshkent: Fan. - 1981. - 312 b
5. <https://staff.tiame.uz/storage/users/452/presentations/x79VeFqJKEqLOxBHpGUadBdYxhDOqD8yqz1he8XS.pdf>
6. <https://tafakkur.net/tora-sulaymon.haqida>
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/To%CA%BBra_Sulaymon
8. <https://baxtiyor.uz/to-ra-sulaymon-haqida-ma-lumot/>
9. <https://ilmlar.uz/tora-sulaymon-sherlar-toplami-tora-sulaymon-ijodi-tarjimai-holi/>

Tuzuvchi:

R. Komilova